

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

**O'ZBEKISTON:
TIL VA MADANIYAT**

Lingvistika

2025 Vol. 3 (1)

www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari: Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib: Dilafruz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Sabohat Bozorova, Manzura Shamsiyeva, Gavhar Komilova, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Saodat Israilova, Mushtariy Xolmurodova, Sherqo'zi Qulbulov, Mahliyoxon Tuxtasinova, Ma'suma Mo'minova, Durdona Mahkamova.

Jurnal haqida ma'lumot

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

“**Lingvistika**” Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi “O'zbekiston: til va madaniyat” jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. “Lingvistika” seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

“Lingvistika” seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Hamidulla Dadaboev
Deputy Editor in Chief: Zulkhumor Kholmanova
Executive secretary: Dilafruz Muhammadiyeva

Editorial Committee

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbaev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Sabohat Bozorova, Manzura Shamsieva, Gavhar Komilova, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Saodat Israilova, Mushtariy Kholmuradova, Sherquzi Kulbulov, Makhliyokhon Tuhtasinova, Ma'suma Muminova, Durдона Mahkamova.

Journal information

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors' ideas may differ from those of the editors'.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Hamidulla Dadaboyev

“Nahj ul-farodis” asari va uning XIV yuzyil turkiy adabiy til soʻz boyligi taraqqiyotida tutgan oʻrni.....8

Dilafruz Muhammadiyeva

“Boburnoma” lugʻatlarining leksikografik talqini.....18

Sherzod Atamuradov

Sifatsiz tarjima ishlarini yuzaga keltiruvchi omillar.....31

Nodira Alavutdinova, Gulhayo Tolibova

Ona tili darslarida badiiy matn tashkil etishning lingvistik asoslari....44

Nargiza Imomiddinova

Xitoy tili harbiy terminologiyasi tizimida soʻz-terminlarning derivatsion xususiyatlari.....49

Sabohat Qahhorova

“Qadam+ fe'l” komponentli birliklarning maʼno tizimi va tezaurusi....66

Qudratillo Bakirov

Qadimgi turkiy tildagi vaqt maʼnoli leksemalarning leksik-semantik tadqiqi va “Devonu lugatit turk” da ifodalanishi.....76

Charos Jumaniyozova

Belgi-xususiyat semantikasini tasniflashga antroposentrik yondashuv87

Мехрибон Шамсиддинова

Преимущества и недостатки использования инновационных технологий в обучении китайскому языку97

Dildora Suyunova

Harbiy nomlar terminologiyasida maʼnodoshlik va shakldoshlik hodisalari.....109

Shodiya Qurbonova

Nutqiy akt nazariyasi yoxud kommunikativ maqsadning ifodalanishi.....116

Umriniso Pulatova

Yoshlar slengining ijtimoiy-tabaqaviy xoslanishi.....125

Maftuna Mamarasulova	
Nominatsiya jarayonining nazariy asoslari	133
Madina Akramdjanova	
Olamning lisoniy manzarasida fitonimlarning aks etishi	142
Nargiza O'ralova	
Parsellyatsiyaning o'rganilishi: ilmiy nazariyalar va tadqiqotlar.....	149
Lola Usmonova	
Lisoniy shaxs tushunchasi va unga yondosh hodisalar tadqiqi.....	157
Muxlisa Arislanova	
She'riy matnlardagi metaforalarning lingvokognitiv asoslari: nazariy va amaliy tahlil (Erkin Vohidov she'rlari misolida).....	166
Durdona Bultakova	
O'zbek nutqiy etiketida fatik birliklarning qo'llanilishi.....	177
Ozodaxon O'ktamova	
Ingliz tilidagi raqamli muloqotda xushmuomalalik strategiyalari va ularning lingvistik xususiyatlari.....	183
Niluzar Axmedova	
O'zbek va ingliz tillarida shaxs ruhiy holatini ifodalovchi leksik birliklarning lisoniy qiymatini aniqlashda kontekst va madaniyatning roli.....	193

Content

Linguistics

Hamidulla Dadaboev

“Nahj al-Farâḍis” and Its Role in the Development of the XIV-Century
Turkic Literary Language Vocabulary.....8

Dilafroz Muhammadijeva

The lexicographic interpretation of the “Boburnama” dictionaries.....18

Sherzod Atamuradov

Factors that cause poor quality translation work.....31

Nodira Alavutdinova, Gulhayo Tolibova

Linguistic Foundations of Organizing Literary Texts in Mother Tongue
Lessons44

Nargiza Imomiddinova

Derivational features of word-terms in the system of military
terminology of the Chinese language49

Sabohat Qahhorova

“Qadam + fe’l” component unit’s semantic system and thesaurus.....66

Qudratillo Bakirov

Lexical-semantic study of time-meaning lexemes in the Old Turkic
language and expression in «Devanu Lugatit Turk».....76

Charos Jumaniyozova

An Anthropocentric Approach to the classification of Feature-attribute
semantics87

Mekhribon Shamsiddinova

Advantages and disadvantages of using innovative technologies in
teaching the chinese languages97

Dildora Suyunova

Phenomena of similarity in meaning and form in the terminology of
military names109

Shodiya Qurbonova

Speech act theory or expression of communicative purpose.....116

Umriniso Pulatova

The socio-stratification of youth slang.....125

Maftuna Mamarasulova

Theoretical foundations of the nomination process.....133

Madina Akramdjanova

The reflection of phytonyms in the linguistic picture of the world ...142

Nargiza O'ralova

The Study of Parcellation: Scientific Theories and Research.....149

Lola Usmonova

Study of the concept of linguistic personality and related phenomena.....157

Muxlisa Arislanova

Linguocognitive foundations of metaphors in poetic texts: theoretical and practical analysis (on the example of the poems of Erkin Vakhidov).....166

Durdona Bultakova

The use of phatic units in the speech etiquette of uzbek language.....177

Ozodaxon O'ktamova

Politeness Strategies and Their Linguistic Features in English Digital Communication183

Niluzar Akhmedova

The Role of Context and Culture in Defining the Linguistic Value of Lexical Units Expressing Human Psychological States in Uzbek and English193

Nominatsiya jarayonining nazariy asoslari

Maftuna MAMARASULOVA¹

Annotatsiya

Mazkur maqolada nominatsiya jarayonining falsafiy va lingvistik asoslari, uning shakllanish bosqichlari, shuningdek, zamonaviy tilshunoslikdagi tutgan oʻrni tahlil qilingan. Maqolada nominatsiya jarayonining inson tafakkuri bilan bevosita bogʻliqligi hamda uning besh bosqichli tizimi (obyektni tanlash, belgilash, konsept shakllantirish, lingvistik belgi tanlash va ijtimoiylashuv) tahlil etilgan. Nominatsiyaning tabiiy va sunʼiy turlari, birlamchi va ikkilamchi nominatsiya farqlari, shuningdek, nominatsiya tamoyillarining (belgi, vazifa, nisbiylik va tovush taqldiligiga asoslangan) tasnifi aniq misollar orqali yoritilgan. Shuningdek, maqolada fonosemantika nominatsiyaning fonetik asosi sifatida alohida yoʻnalish sifatida koʻrsatilgan. Tadqiqot natijalari nominatsiya jarayonining oʻzbek tilshunosligida oʻrganilishi, milliy tafakkur va lisoniy manzara oʻrtasidagi uzviy bogʻliqligini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligini koʻrsatadi.

Kalit soʻzlar: *nominatsiya, onomasiologiya, birlamchi nominatsiya, ikkilamchi nominatsiya, nominatsiya tamoyillari, fonosemantika, lisoniy manzara, konseptual manzara.*

Insoniyat taraqqiyotining deyarli barcha bosqichlarida til inson tafakkurining, va ijtimoiy hayotining ajralmas qismi sifatida namoyon boʻladi. Inson ijtimoiy jarayonlarda atrof-muhit bilan muloqotga kirishish, borliq olamni idrok etish va unga nom berish ehtiyojini his qiladi. Bu jarayonda tilning eng muhim birliklaridan biri – soʻz – markaziy oʻrin egallaydi. Soʻz inson tafakkurining mahsuli, uning bilish faoliyatining natijasidir. Shu bois soʻzning yuzaga kelishi masalasi tilshunoslik fani falsafa tarkibida boʻlgan qadimgi zamonlardan beri faylasuf va olimlarning eʼtibor markazida boʻlib kelmoqda. Obyektiv olamdagi narsa va hodisalarni atash jarayoni dastlab antik davr faylasuflari tominidan muhokamaga tortilgan. Ular soʻzning mohiyati va uning narsa bilan munosabati haqida bahs yuritganlar. Nom bilan obyekt oʻrtasidagi bogʻliqlik tabiiy hodisami

¹ *Mamarasulova Maftuna Rustam qizi* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti.

E-pochta: maftunamamarasulova7@gmail.com

Iqtibos uchun: Mamarasulova M.R. Nominatsiya jarayonining nazariy asoslari. *Oʻzbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2025-3: 133-141.

yoki shartli kelishuv mahsulimi – bu masala til falsafasining markaziy muammolaridan biri bo‘lib kelgan. Qadimgi Yunon faylasufi Aristotel so‘z(nom)ni taqlid vositalaridan biri sifatida tasniflaydi, biroq u so‘zni ko‘r-ko‘rona taqlid emas, aqliy faoliyat natijasi deb biladi. Aristotel bunday taqlid(nomlash jarayoni)ni nafaqat insonning tabiiy qobilyati, balki intellektual ehtiyoji sifatida baholaydi.

Alisher Navoiy tilshunoslik ilmiga bag‘ishlangan “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida nomlarning, umuman, tilning paydo bo‘lishini Baqara surasining 31-oyatiga tayanib quyidagicha ta’riflaydi: *“Egamning qandayin komil qudratidirki, insonga “Odamning vujudi loyini qirq sahar pishitib qo‘ydim” degan qadimiy hadisi mazmuni bilan (Alloh) odamga barcha (yaratilgan va yaratilajak narsalarga tegishli) nomlarni o‘rgatdi va uni Mutakallim (so‘zlovchi) ismining timsoli qildi”* [Muhokamat ul-lug‘atayn, 2014:5]

Nominatsiya – atrof-muhitdagi real obyektlar, hodisalar, harakatlar, belgi yoki jarayonni til birliklari vositasida nomlash jarayonini bildiradi. Ushbu jarayon inson tafakkuridagi tushunchalarni so‘z, birikma, yoki boshqa nominativ birliklar vositasida ifoda etishni ta‘minlaydi. Nominatsiya nazariyasi esa til birliklari orqali olamni, inson tafakkuridagi tushunchalarni nomlash qonuniyatlari, prinsip va mexanizmlari, shuningdek, nomlash jarayoning natijasi bo‘lmish so‘z va birikmalarning paydo bo‘lishi, shakllanishi va ma’no ifodalash jarayonlarini o‘rganadi [Уфимцева А.А; Азнаурова Э.С; Телия В.Н; Кубрякова Е.С; Арутюнова Н.Д, 1977].

Jahon tilshunosligida nominatsiya nazariyasiga oid tadqiqotlar XIX asr oxirlaridan boshlangan. Xususan, rus tilshunosligida nominatsiya nazariyasi chuqur tadqiq etilgan bo‘lib, “Языковая номинация” [Уфимцева А.А; Азнаурова Э.С; Телия В.Н; Кубрякова Е.С; Арутюнова Н.Д, 1977] monografiyasida ushbu sohaga doir fundamental nazariy fikrlar qayd etilgan. bu tendensiya turkiy tilshunoslikda XX asrning 2-yarimida boshlanganligi ilmiy-nazariy adabiyotlarda qayd etiladi. Turkiy onomasiologiyaga oid eng ko‘p tadqiqotlar qozoq tilshunosligida amalga oshirilgan bo‘lib, dastlab A.T.Kaydarov [Кайдаров, 1986] bu masalani ko‘targan bo‘lsa, Q.Xusainov [Хусайнов К. Ш, 1988] nominatsiyaning birinchi tamoyili sifatida tovush ifodasini (onomatopea) tahlil qilgan. Hozirgi kunda G.N.Yagafarovning “Hozirgi boshqird tili leksikasining onomasiologik tahlili” (“Ономасиологический анализ лексики современного башкирского языка”) mavzusidagi tadqiqoti ham shu masalaga qaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb

etadi [Ярафарова, 2018]. Tadqiqotda, asosan, boshqird tilidagi fitonimlarning nominativ xususiyatlari ochib berilgan. O'zbek tilshunosligida Sh.Norbayevaning [Norbayeva, 2024] "Xorazm shevalari leksikasining onomasiologik tadqiqi" dissertatsiyasi diqqatga sazovor tadqiqotlar sirasiga kiradi. Ushbu tadqiqot ishida xorazm shevalari leksikasi misolida nominatsiya tamoyillari ochib berilgan.

XX asrning ikkinchi yarimida nominatsiyaning ikkilamchi, hodisaviy, jumlagi oid, anaforik, bilvosita turlariga alohida e'tibor qaratildi. Bundan tashqari nominativ birliklar qatoriga nafaqat ot so'z turkumidagi, balki boshqa barcha mustaqil so'z turkumiga oid so'zlar, shuningdek, gapga teng jumlar, turli okkozional vositalar kiritildi [Уфимцева А.А; Азнаурова Э.С; Телия В.Н; Кубрякова Е.С; Арутюнова Н.Д, 1977]. Shuningdek, nominatsiya nazariyasi yaxlit nutqiy vaziyatlarga ham tadbiiq etila boshlandi. Natijada leksik nominatsiyaning tadqiq doirasi kengayishidan propozitsion (propozitiv) nominatsiyaga e'tibor qaratila boshlandi [Е. С. Кубрякова, 2010].

Borliqqa tegishli voqelikning nomlanishi bilan bog'liq masala XX asr o'rtalaridan buyon onomasiologiyaning tadqiq obyektiga aylangan. Onomasiologik tahlil semasiologik tahlil tamoyillariga qarama-qarshi ma'noda qo'llanilib, semasiologik tahlilda so'z ma'nosiga asosiy e'tibor qaratilsa, onomasiologik tahlilda so'zning lingvistik belgilar vositasida shakllanuvchi jihatiga – shakliga asosiy e'tibor qaratiladi. Ya'ni olamning til vositalari orqali nomlash, verballashuvi, olam manzarasining lisoniy olam manzarasiga aylanish jarayonlari tahlil qilinadi.

Nominatsiya ya'ni nomlash jarayoni insoniyatning o'zi yashab turgan atrof-muhit hodisalarini, narsa-predmetlarni, jarayonlarni, xullas, borliqni anglay boshlashining natijasi sanaladi. Kishilarning turshmush jarayonida borliqdagi narsa predmetlarni bir-biridan farqlash, umumlashtirish kabi ehtiyojlari nomlar vositasida hal etilgan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, "nominatsiya, ya'ni obyektiv olamdagi narsa va hodisalarni atash jarayoni aynan ularni anglay olish, bilish jarayoni bilan bevosita aloqadorlikda yuzaga keladi. Inson bilish jarayonida narsa va predmetlarga xos bo'lgan belgi va xususiyatlarni aniqlab boradi, predmetlarni nomlash jarayonida esa mazkur belgilardan yetakchi mavqega ega bo'lganini tanlaydi. Shu tariqa har qanday narsa va hodisa inson tomonidan o'zining munosib atamasini, nomini oladi" [Л.Худайбердиева, 2003]. Praga lingvistik to'g'aragi a'zolari nominatsiyani faoliyat

mezoni asosida talqin etadi, unga ko'ra, "inson ichki va tashqi, real va mavhum holatlardagi borliqni tarkibiy qismlarga ajratishda nominativ faoliyatga tayanishini qayd etadi.

Nominatsiya bilish jarayoni bilan bevosita aloqadorlikda yuzaga kelar ekan, bu jarayonlar muayyan ketma-ketlikni talab etadi. Tilshunos M.Xakimova [Xakimova, 2023] quyidagicha ketma-ketlikda ifodalaydi: Olam manzarasi - olamning (ongdagi) konseptual manzarasi - olamning lisoniy manzarasi.

Olam manzarasi ya'ni moddiy (tog', tosh kabi) yoki nomoddiy birliklar (o'y, xayol kabi) insonning anglash, bilish va tafakkur qilish qobiliyati orqali alohida ajratib olinadi va olamning konseptual manzarasiga aylanadi. Mana shu olamning konseptual manzarasining shakllanishi denotatning turli belgilarini farqlash, umumlashtirish, mavhumlashtirish orqali ma'lum kategoriyalarga ajratuvchi aqliy faoliyat bosqichi sanaladi. Ushbu bosqichdan so'ng tushunchaga mos lingvistik belgi tanlanadi. Masalan, biz notanish holatga duch kelamiz va predmetning belgi xususiyatlari bilan yaqindan tanishganimizdan so'nggina unga nom bera olamiz.

Nominatsiya murakkab jarayon bo'lib, besh bosqichdan iborat ketma-ketlikni tashkil etadi:

1. Nominatsiya jarayonining dastlabki bosqichi obyektни tanlash hisoblanadi. Bu bosqichda obyekt inson idrok etish orqali boshqalaridan ajratib olinadi. Masalan, daraxt uning atrofidagi boshqa obyektlar, tog', daryo, o't-o'lanlardan farqli obyekt sifatida ajratiladi.

2. Navbatdagi bosqichda obyektga xos eng muhim belgi, xususiyatlar anqilanadi. Masalan, daraxtning shakli, hidi, rangi kabilar aniqlanadi.

3. Keyingi bosqich ongda obyektning belgi-xususiyatlaari umumlashtirilgan konsepti shakllanadi. Daraxt misolida tushuntiradigan bo'lsak, barcha daraxtlarga xos umumiy tushuncha shakllanadi.

4. Keyingi bosqich lingvistik belgining tanlanish bosqichi bo'lib, til belgilaridan ma'lum obyekt yoki hodisaning mohiyatiga mos keladigan birini tanlanadi. Masalan, ongda shakllangan daraxt tanasiga ega o'simlik tushunchasi d,a,r,x,t tovush(harf)lar ketma-ketligidan iborat so'zga birlashtiriladi.

5. So'nggi bosqich - ijtimoiylashuv bosqichi bo'lib, bu bosqichda ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan daraxt so'zining ishlatilishi kerak. Ushbu bosqichlardan o'tgan leksik birliklar yoki og'zaki belgilar muayyan til lug'atining to'laqonli elementlariga

aylanadi [Уфимцева А.А; Азнаурова Э.С; Телия В.Н; Кубрякова Е.С; Арутюнова Н.Д, 1977]. Ushbu besh bosqich nominatsiya jarayonining asosiy bosqichlari hisoblanadi. Shuningdek, obyektlar va voqeliklarni nomlashning muhim tarkibiy qismi nominatsiya tamoyillari sanaladi. Bu zamonaviy tilshunoslikning eng muhim masalalaridan biri bo'lib, ularni aniqlash va o'rganish so'zlarning genetik kelib chiqishi, tillarning voqelik bilan aloqasi, olamning lisoniy manzarasida milliy o'ziga xoslikni aks etishi kabi muammolarni hal etishga yordam beradi [Ярафарова, 2018]. O.I.Blinovanning ta'kidlashicha, nominatsiya tamoyillari til egasi tomonidan motivatsion xususiyatlarni umumlashtirish asosida shakllanuvchi va shu bilan birga yangi nomlar uchun boshlang'ich asos bo'lib xizmat qiluvchi pozitsiya va qoidalar majmuasidir [O.I.Blinova, 2012] Qayd etilishicha, dastlab, predmetlarning katta-kichiklik, past-balandlik kabi tashqi ko'rinishiga xos belgilari, nomlash uchun asos bo'lgan. Sekin-asta obyekt va predmetlarning ichki xususiyatlari ham nomlash uchun asos bo'la boshlagan. Ma'lum predmetning qo'llanilishi, vazifasi (maqsad, foydalanish, rol) va boshqa belgilari asosida nominatsiya tamoyili (printsipi) shakllanadi, natijada nominatsiya tamoyili ona tilida so'zlashuvchilarning ongida mustahkamlangan semantik, mazmunli kategoriyaga aylanadi. Nominatsiya prinsiplarining tasnifi tillarning o'ziga xosligi va turli olimlarning yondashuvlari nuqtai naziradan turlicha belgilanadi. Xususan, N.A.Grigorenko va N.G. Ilyinskaya nominatsiyaning uchta asosiy tamoyili (prinsip)ni aniqlaydi [Н. А. Григоренко; Н. Г. Ильинская, 2008] :

1. Belgiga asoslangan tamoyil (predmetga xos bo'lgan shakl, hajm, rang, hid, mazzasi belgilar asosidagi nomlash tamoyili);
2. Vazifasiga asoslangan tamoyil (bajaradigan vazifasi asosida nomlash tamoyili);
3. Nisbiylik tamoyili (joy, vaqt va boshqalar asosida nomlash tamoyili)

G.Yagafarova turkiy tillar lug'atining katta qismini onomatopeya (taqlidga asoslangan) tashkil qilganligini inobatga olgan holda nominatsiya tamoyillari qatoriga tovush taqlidiga asoslangan nominatsiya tamoyilini ham qo'shadi va quyidagicha tamoyillar ketma-ketligini taklif etadi:

- 1) tovush taqlidligiga asosidagi nominatsiya tamoyili;
- 2) belgiga asoslangan tamoyil (predmetga xos bo'lgan shakl, hajm, rang, hid, mazzasi belgilar asosidagi nomlash tamoyili);
- 3) vazifasiga asoslangan tamoyil (bajaradigan vazifasi asosida

nomlash tamoyili);

4) nisbiylik tamoyili (joy, vaqt va boshqalar asosida nomlash tamoyili)

Ushbu yondashuv o'zbek tili uchun ham mos deb hisoblaymiz.

Shuningdek, tadqiqotchilar hosil bo'lishiga ko'ra nominatsiyaning "sun'iy nominatsiya" va "tabiiy nominatsiya" guruhini farqlaydi [Ульянова, 1983]

Tabiiy nominatsiya o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1) birlamchi nominatsiyalar
2) ikkilamchi nominatsiyalar – metafora, metonimiya ta'sirida yuzaga kelgan nominatsiyalar. Ular assotsiativ tafakkurga asoslangan bo'ladi: qora oltin -neft;

Sun'iy nominatsiyalar o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1) Ongli ravishda lug'at tarkibiga kiritish maqsadiga yo'naltirilgan holda hosil qilingan nominatsiyalar: mobil telefon, smartfon kabi;

2) "patologik" nominatsiya, lisoniy mezonlardan og'ishish, ekstralingvistik faktorlar evaziga hosil bo'lgan nominatsiyalar: nanotexnologiya, kompyuterlashtirish.

Tabiiy nominatsiyalar mavjud leksemalar qamrab oladi, sun'iy nominatsiyalar esa ma'lum shart-sharoit natijasida inson tomonidan yaratiladi. Biroq, nominatsiyaning sun'iyligi har doim tabiiy nomlash jarayonlariga asoslanadi.

Birlamchi nominatsiya bilan bog'liq masalalar bo'yicha tilshunoslarning fikrlari juda o'xshash bo'lsa, ikkilamchi nominatsiya va ularning xususiyatlarini aniqlash muammosi hali ham munozarali masalalar sirasiga kiradi. V.V.Vinogradovning qayd etishicha, belgilangan obyektning tegishli sharoitda birlamchi vazifada qo'llanilgan shakli birlamchi yoki to'g'ri nominatsiya hisoblanadi. Birlamchi nominatsiya - bizni o'rab turgan atrof olamning, voqelikning bo'laklarini bildiradi [Виноградов, 1969]. Qayd etilishicha, birlamchi nomlar tildagi o'tmish davrlar davomida til egalari tomonidan narsa, hodisalar, xilma-xil real va noreal obyektlarga berilgan dastlabki ilk nomlar hisoblanadi. Shu ma'noda birlamchi nominatsiya zamonaviy tillarda juda kam uchraydigan hodisadir, chunki barcha tillarning birlamchi leksik tarkibi uzoq asrlar davomida shakllangan. Masalan, turkiylar dunyoqarashining ibtidoiy qarashlarini aks ettiruvchi so'zlar asosan bir bo'g'inli, bazan ikki bo'g'inli so'zlar bo'lib, ular qadimgi turkiy lug'atning eng qadimiy qatlami hisoblanadi. Masalan, yer, suv, soy, tog', qir, bo'ron, quvonch kabilar. Birlamchi nominatsiya sifatida dastlab asosan

ot soʻz turkumi oʻrganilgan. Keyinchalik nomlash uchun xizmat qiluvchi nutq qismlari nazariyasi doirasida feʼllar, sifatlar, sonlar kabilarning ham nominativ funksiyasi koʻrib chiqildi. Birlamchi nominatsiya soʻzning fonetik tarkibi bilan chambarchas bogʻliqligi qayd etiladi. Shuning uchun fonosemantik tahlil natijalari uni oʻrganish uchun asos sifatida ishlatilishi mumkin. Fonosemantika – tillardagi nominatsiyaning fonetik asosi va maʼnosiga qarab fonetik shakllanish qonuniyatlarini oʻrganuvchi soha hisoblanadi.

Ikkilamchi nominatsiyalarning paydo boʻlishi inson tafakkurining oʻziga xos xususiyatlari, uning assotsiativ tabiati va shuningdek, maʼlum leksik birliklarning “semantik oʻzgarishi” bilan bogʻliq jarayon hisoblanadi. Ikkilamchi nominatsiya odatda konnotativ maʼnoning shakllanishi natijasi boʻlib, matn mazmuniga majoziylik va ekspressivlik beradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, nominatsiya tilning muhim funksiyalaridan biri boʻlib, u inson tafakkuridagi tushunchalarni lingvistik shaklda ifoda etishiga asos boʻladi. barcha tilshunoslik sohalari doirasida keng qamrovda oʻrganiladi. Nomlash bilish jarayoni bilan bevosita bogʻliqlikda yuzaga kelgani bois nominatsiyani oʻrganish inson tafakkuri, madaniyati va dunyoqarashini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Nominatsiya har bir til va madaniyatning oʻziga xosligi ifodasi boʻlib, u jamiyatning dunyoqarashi, qadriyatlarini va hayot tarzini aks ettiradi. Tilshunoslikda nominatsiya nazariyasining chuqur oʻrganilishi inson tafakkuri va til oʻrtasidagi murakkab aloqalarni yoritishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

- Hakimova M.K. 2023. Semasiologiya. – Toshkent.
- Геляева А. И. 2002. Человек в языковой картине мира /А. И. Геляева. – Нальчик: Каб.-Балк.ун-т,- 177 с.
- Аппоев А. К. 2013. Этнографическая лексика карачаево-балкарского языка: Дисс. ... канд. филол. наук / А. К. Аппоев. – Нальчик,- С. 75.
- Маҳмудов Н. 2012. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўллари излаб... Ўзбек тили ва адабиёти, № 5.
- Уфимцева А.А., Азнаурова Э.С., Телия В.Н., Кубрякова Е.С., Арутюнова Н.Д. 1977. Под ред.: Серебrenников Б.А. Языковая номинация. – М.: Наука, – 360 с.
- А.Navoiy. 2014. Muhokamat ul-lugʻatayn. Toshkent. “Tafakkur” nashriyoti.
- Худайбердиева Л. 2003. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг даражаланиши. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент.
- Хусаинов К. Ш. 1988. Звукоизобразительность в казахском языке / К.

Ш. Хусаинов. – Алма-Ата: Наука,– 232 с.

Блинова О.И. 2000. Словарь терминов мотивологии // Блинова О.И. Русская мотивология. Томск: Изд-во Том. ун-та.

Ягафарова Г.Н. 2018. Ономазиологический анализ лексики современного башкирского языка: Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук. – Казан,– 50 с.

<https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/4518349>

<https://www.grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/6306>

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=aiGGU2YAAAAJ&citation_for_view=aiGGU2YAAAAJ:UeHWp8X0CEIC

Theoretical foundations of the nomination process

Maftuna MAMARASULOVA¹

Abstract

This article analyzes the philosophical and linguistic foundations of the nomination process, the stages of its formation, as well as its place in modern linguistics. The article analyzes the direct connection of the nomination process with human thinking and its five-stage system (object selection, designation, concept formation, linguistic sign selection and socialization). Natural and artificial types of nomination, differences between primary and secondary nomination, as well as the classification of nomination principles (based on sign, function, relativity and sound imitation) are highlighted through specific examples. The article also shows phonosemantics as a separate direction as the phonetic basis of nomination. The results of the research show that the study of the nomination process in Uzbek linguistics is of significant scientific importance in determining the inextricable link between national thinking and the linguistic landscape.

Keywords: *nomination, onomasiology, primary nomination, secondary nomination, nomination principles, phonosemantics, linguistic landscape, conceptual landscape.*

References

Xakimova M.K. 2023. Semasiology. – Toshkent.

